



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Samarqand viloyati
kichik tadbirkorlik**
2022- yil yanvar-sentabr

Samarqand viloyatida kichik tadbirdorlik




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirdorlik subyektlarining

YaHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirdorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **70,9** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **8,4** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,4** foizga ko'p demakdir.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **4 010** ta, sanoatda **1 294** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **841** ta, qurilishda **271** ta, yashash va ovqatlanishda **828** ta, axborot va aloqada **167** ta, sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **141** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 94,5



Sanoat 38,2



Qurilish 78,8



Investitsiya 59,2



Savdo 79,2



Xizmatlar 67,6



Eksport 47,2



Import 37,1



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


46 353

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

8 357

2022- yilning 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan va yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, ulushi % da




■ 2021- y. ■ 2022- y.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2022-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar, % da



1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

1-oktabr holatida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

	2021- y.	2022- y.	+%
Toyloq	1 663	2 019	+356
Urgut	3 546	4 072	+526
Nurobod	1 208	1 447	+239
Samarqand	3 108	3 429	+321
Paxtachi	990	1 165	+175
Pastdarg'om	3 532	3 928	+396
Payariq	2 064	2 365	+301
Narpay	1 263	1 435	+172
Qo'shrabot	845	987	+142
Kattaqo'g'on	2 007	2 356	+349
Ishtixon	2 172	2 481	+309
Jomboy	1 590	1 884	+294
Bulung'ur	1 606	1 927	+321
Oqdaryo	1 675	1 978	+303
Kattaqo'g'on sh.	1 340	1 504	+164
Samarqand sh.	11998	13376	+1378

■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar




Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Samarqand sh.	2045	2049	Narpay	258	256
Kattaqo'rg'on sh.	236	249	Payariq	408	383
Oqdaryo	461	450	Pastdarg'om	806	732
Bulung'ur	340	420	Paxtachi	251	243
Jomboy	337	358	Samarqand	659	644
Ishtixon	479	502	Nurobod	317	321
Kattaqo'rg'on	430	463	Urgut	664	703
Qo'shrabot	191	191	Toyoq	363	393

■ 2021 y. yanvar-sentabr ■ 2022 y. yanvar-sentabr

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri – 24,5 %, Pastdarg'om tumani – 8,8 %, Urgut tumani – 8,4 %, Samarqand tumani – 7,7 %, Ishtixon tumani – 6,0 %, Oqdaryo tumani - 5,4 %, Kattaqo'rg'on tumani - 5,5 %, Bulung'ur tumani-4,7 % hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022– yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

4 010 ta

Sanoatda

1294 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida


841 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yich xizmatlar

828 ta


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 228,5 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 47,2 % ini tashkil etdi.




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kattaqo'rg'on shahar, Bulung'ur, Qo'shrabot va Kattaqo'g'on tumanlarida – 100,0 %, Payariq tumanida 96,0 %, Oqdaryo 75,4 %, Urgut tumanida – 78,1 %, Jomboy tumanida-52,3 %, Samarqand tumanida – 49,3 % va Pastdarg'om tumanida – 42,6 %ni, eng past ko'rsatkich Nurobod tumanida –4,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Qo'shrabot, Bulung'ur va Payariq tumanlarida-100,0 %, Paxtachi - 99,9 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 99,1 %, Ishtixon tumanida – 92,5 %, Kattaqo'rg'on tumanida – 82,5 %, Urgut tumanida – 84,0 %, Oqdaryo tumanida – 90,0 %. Eng past ko'rsatkich Samarkand shaharida - 22,4 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **464,6** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **37,1** % ini tashkil etdi.



2022 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 788,9** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarcand shahri (2030,9 mlrd. so'm), Urgut (1044,6 mlrd. so'm), Samarcand (876,4 mlrd. so'm), Jomboy (900,5 mlrd. so'm) va Toyloq (502,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shrabot tumanida (59,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022-yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **38,2 %** ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bulung'ur, Qo'shrabot, (100,0%), Kattaqo'rg'on shahri (97,3%), Oqdaryo tumani (96,3%), Kattaqo'rg'on tumani (81,5 %), Urgut tumani (68,4%), Payariq tumani (53,4%), Samarcand tumani (62,2%), Pastdarg'om tumani (48,4%), Jomboy tumani (44,0%), Toyloq tumani (31,1%), Ishtixon tumani (35,5) ni tashkil etdi. Narpay tumani (15,3%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **14 385,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **79,2** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **9,2** % ga o'sishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi Samarkand shahri (3986,2 mlrd. so'm), Kattaqo'g'on shahri (1173,5 mlrd. so'm), Urgut (1704,9 mlrd. so'm), Pastdarg'om tumani (925,5 mlrd. so'm), Samarkand (822,3 mlrd. so'm), Kattaqo'g'on (742,8 mlrd. so'm) va Bulung'ur (743,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

hajm, mlrd. so'm

o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 987,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **78,8 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,8 %** ni tashkil qildi.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (1827,9 mlrd. so'm), Oqdaryo (466,0 mlrd. so'm), Payariq (340,2 mlrd. so'm), Urgut (273,3 mlrd. so'm), Ishtixon (248,1 mlrd. so'm), Toyloq (227,0 mlrd. so'm), Jomboy (258,5 mlrd. so'm), Pastdarg'om (207,5 mlrd. so'm), Samarqand (213,3 mlrd. so'm), Kattaqo'g'on (177,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **11 077,3** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʼrsatildi yoki koʼrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,6 %** ini tashkil qildi va oʼsish surʼati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **112,5 %** ni tashkil qilgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp xizmatlar hajmi Samarqand shahri (3404,4 mlrd. soʼm), Samarqand (978,5 mlrd. soʼm), Pastdargʼom (790,8 mlrd.soʼm), Urgut (858,9 mlrd. soʼm), Toyloq (582,4 mlrd. soʼm), Jomboy (541,0 mlrd. soʼm), Kattaqoʼrgʼon (538,1 mlrd. soʼm) va Oqdaryo (490,0 mlrd. soʼm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati




■ hajm, mlrd. soʼm


■ oʼsish surʼati, %

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 88,5 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,6 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil qildi.


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da **1 836** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 856 (46,6 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 854 (46,5%) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 125 (6,9%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,4 % (99 ta), sanoatda – 17,0 % (313 ta), qurilishda – 6,8 % (124 ta), savdoda – 45,0% (825 ta), xizmatlar sohasida – 25,8 % (474 ta)ni tashkil etdi.

2022- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (602 ta), Samarqand (169 ta), Urgut (130 ta), Pastdarg'om (135 ta), Kattaqo'rg'on (107 ta), Toyloq (99 ta), Ishtixon (97 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 49,8% ni, qurilish 41,1 % ni, sanoatda 46,6 % ni, xizmatlar sohasida 43,9% ni, tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 52,5 % ni, savdoda 49,8 % ni, sanoatda 47,0% ni, xizmatlar sohasida 48,5% ni va qurilish 47,6 % ni tashkil etdi.

2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 56,6 %, savdo sohasida 54,7% ni, xizmatlar sohasida 52,3% ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagisi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida 44,4% ni, savdo sohasida 41,3 % ni, sanoatda 44,1 % ni, xizmatlar sohasida 41,6 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 37,4% ni, tashkil etdi.